

MECHANISMS OF DEVELOPING SOCIAL EMOTIONAL SKILLS IN PRIMARY STUDENTS

Utebayev Naorizbek Marat ugli

Assistant teacher of the Department of “Preschool and Primary Education”

University of Innovative Technologies

Abstract

This article analyzes the pedagogical mechanisms for developing social-emotional skills in primary school students. During the research process, the content, structural components, and influencing factors of social-emotional skills were studied. The study also substantiates the possibilities of developing students' communication culture, emotional stability, and collaboration skills through interactive educational technologies, communicative trainings, role-playing games, and group activities. The results of the experimental work confirmed the effectiveness of the applied pedagogical mechanisms.

Keywords: Social-emotional skills, primary education, socialization, emotional development, pedagogical mechanisms, communicative competence, interactive methods, reflection.

Introduction

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOY-EMOTSIONAL KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Utebayev Nao‘rizbek Marat o‘g‘li

Innovatsion texnologiyalar universiteti

“Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning mazmuni, tarkibiy

komponentlari va ularni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Shuningdek, interaktiv ta'lim texnologiyalari, kommunikativ treninglar, rolli o'yinlar va guruhli ishlar asosida o'quvchilarning muloqot madaniyati, emotsional barqarorligi va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berildi. Tajriba-sinov natijalari qo'llanilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, boshlang'ich ta'lim, ijtimoiylashuv, emotsional rivojlanish, pedagogik mexanizmlar, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, refleksiya.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy hamda emotsional rivojlanishini ta'minlash vazifasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirish ularning keyingi hayotiy faoliyati, jamiyatga moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishining muhim omili hisoblanadi. Zero, bolaning o'zini anglashi, his-tuyg'ularini boshqarishi, muloqot madaniyatiga ega bo'lishi, jamoada hamkorlik qilishi hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi, ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "ijtimoiylashuv" tushunchasi shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirishi hamda ijtimoiy munosabatlar tizimiga moslashuv jarayonini anglatadi. Mazkur jarayonda oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar muhiti, ommaviy axborot vositalari va internet kabi omillar muhim ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish ularning shaxsiy faolligi, emotsional barqarorligi,

o‘zini anglashi va atrofdagilar bilan konstruktiv munosabat o‘rnatishida muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada ijtimoiy-emotsional rivojlanish masalasiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar ijtimoiy ko‘nikmalarni shaxsning ijtimoiy munosabatlarda samarali ishtirok etishini ta‘minlaydigan bilim, malaka va xulq-atvor usullari majmuasi sifatida talqin qiladilar. Bunday ko‘nikmalar qatoriga muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, emotsiyalarni boshqarish, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish, o‘zini va boshqalarni qadrlash kabi sifatlar kiradi.

Shu bilan birga, tahlillar boshlang‘ich ta‘lim amaliyotida o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan mexanizmlar, metodik yondashuvlar va amaliy texnologiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatmoqda. Mazkur holat ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, emotsional barqarorligi va shaxslararo munosabatlarida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlash, ularning mazmuni, komponentlari va amaliy imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar, konsepsiyalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shaxs ijtimoiylashuvi haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar qadimgi faylasuflar Konfutsiy, Platon va Aristotel asarlarida uchraydi. Xususan, Platon bolani yoshlikdan ijtimoiy hayotga tayyorlash, uni jamoaviy munosabatlar asosida tarbiyalash g‘oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, tarbiya kelajak jamiyat taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi.

“Ijtimoiylashuv” atamasi ilmiy muomalaga amerikalik sotsiolog F.G.Giddings tomonidan kiritilgan bo‘lib, olim mazkur jarayonni individni ijtimoiy hayotga tayyorlash va uning ijtimoiy tabiatini rivojlantirish sifatida izohlaydi. Keyinchalik mazkur tushuncha psixologiya va pedagogika sohalarida keng

qo'llanilib, shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi hamda ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etishi bilan bog'liq jarayon sifatida talqin qilindi.

L.S.Vygotskiy, A.N.Leontev, L.I.Bojovich kabi psixolog olimlar bola shaxsining rivojlanishida ijtimoiy muhit va faoliyatning hal qiluvchi ahamiyatini asoslab berganlar. Jumladan, L.I.Bojovich bola xulq-atvoridagi barqaror ijtimoiy ko'nikmalar muayyan shaxsiy sifatlarning asosini tashkil etishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy xulq-atvorning muntazam takrorlanishi natijasida ijobiy odatlar shakllanadi.

A.V.Mudrik ijtimoiylashuv omillarini megaomillar, makroomillar, mezoomillar va mikroomillarga ajratib tahlil qiladi. Olimning fikricha, insonning ijtimoiy rivojlanishiga oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar muhiti, ommaviy axborot vositalari va internet muhiti sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, zamonaviy axborot makonida internet va raqamli texnologiyalar bolalarning emotsional holati hamda ijtimoiy munosabatlariga kuchli ta'sir o'tkazmoqda.

Mahalliy olimlardan N.Egamberdieva oilaning bola ijtimoiylashuvidagi o'rnini alohida ta'kidlab, oiladagi sog'lom psixologik muhit bolaning ijtimoiy faolligi va emotsional barqarorligini ta'minlashini qayd etadi. Shuningdek, tadqiqotchi zamonaviy oilalarda tarbiyaviy vazifalarning qisman tashqi ijtimoiy institutlarga o'tib borayotgani bolalar tarbiyasida muayyan muammolarni keltirib chiqarayotganini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda "ijtimoiy-emotsional ta'lim" (Social Emotional Learning – SEL) konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. CASEL tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabat o'rnatish va mas'uliyatli qaror qabul qilish asosiy kompetensiyalar sifatida belgilangan. Tadqiqotlar ushbu ko'nikmalarning rivojlanishi o'quvchilarning akademik natijalari, jamoadagi munosabatlari va psixologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlamoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish murakkab va ko'p omilli pedagogik jarayon hisoblanadi. Biroq mazkur muammoning nazariy jihatlarini keng yoritilgan bo'lsa-da, uning amaliy mexanizmlari, bosqichlari va ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni

rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

METODLAR

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan nazariy hamda amaliy metodlar majmuasidan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy metodlari sifatida pedagogik, psixologik va sotsiologik adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyosiy o'rganish, umumlashtirish va tizimlashtirish ishlari amalga oshirildi. Mazkur metodlar orqali ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarning mazmuni, tarkibiy komponentlari, rivojlanish bosqichlari hamda ularni shakllantirishga doir ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Empirik tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, suhbat, anketa-so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov va diagnostik metodlardan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali o'quvchilarning jamoadagi faolligi, muloqot madaniyati, emotsiyalarni boshqarish holati va tengdoshlari bilan munosabatlari o'rganildi. Suhbat va so'rovnomalar yordamida o'qituvchilar, ota-onalar hamda o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishga oid fikr-mulohazalari aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy qismida boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik mexanizmlar qo'llanildi. Jumladan:

- interaktiv ta'lim texnologiyalari;
- rolli va ishbilarmonlik o'yinlari;
- guruhli hamkorlikka asoslangan topshiriqlar;
- refleksiv mashqlar;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- kommunikativ treninglar;
- axloqiy suhbat va munozaralardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarning kognitiv-motivatsion, faoliyatli, refleksiv-baholovchi va xulq-atvor komponentlari asosiy mezon sifatida belgilandi. O'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajalari past, o'rta va yuqori ko'rsatkichlar asosida baholandi. Olingan natijalar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlari

natijalari o'zaro qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa qo'llanilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlandi. Tajriba davomida o'quvchilarning muloqot madaniyati, jamoada ishlash qobiliyati, emotsional barqarorligi, o'zini anglash va o'z his-tuyg'ularini boshqarish darajalari tahlil qilindi. Dastlabki diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmagan. Ayniqsa, ayrim o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifoda etish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, nizoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish hamda emotsiyalarni nazorat qilishda qiyinchiliklar kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida interaktiv ta'lim texnologiyalari, rolly o'yinlar, kommunikativ treninglar, guruhli ishlar va refleksiv mashqlar muntazam qo'llanildi. Ushbu metodlar o'quvchilarning dars jarayonidagi ijtimoiy faolligini oshirish, o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qildi. Tajriba natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarning rivojlanish darajasi sezilarli ravishda oshganligi aniqlandi.

1-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar rivojlanish darajalarining tajriba-sinov natijalari

Ko'rsatkichlar	Tajriba oldidan (%)	Tajriba so'ngida (%)
Yuqori daraja	18	42
O'rta daraja	46	48
Past daraja	36	10

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, tajriba-sinov ishlaridan so'ng o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, yuqori darajadagi ko'rsatkich 18 foizdan 42 foizgacha oshgan bo'lsa, past darajadagi ko'rsatkich 36 foizdan 10 foizgacha kamaygan. Bu esa ta'lim jarayonida qo'llanilgan interaktiv metodlar, kommunikativ treninglar va refleksiv mashqlarning samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Xususlan:

- o‘quvchilarning jamoada hamkorlik qilish ko‘nikmalari rivojlandi;
 - muloqot jarayonida erkin fikr bildirish faollashdi;
 - emotsional holatni boshqarish va o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish qobiliyati mustahkamlandi;
 - nizoli vaziyatlarda murosa va konstruktiv yondashuvdan foydalanish holatlari ko‘paydi;
 - o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va mas’uliyat hissi kuchaydi.
- Tajriba davomida o‘quvchilarning refleksiv fikrlash darajasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ular o‘z xatti-harakatlarini baholash, xatolarini anglash va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirishga nisbatan ongli munosabat bildirib boshladilar.

Nazorat guruhida esa ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning rivojlanishida ma’lum ijobiy siljishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, tajriba guruhiga nisbatan past ko‘rsatkichlar qayd etildi. Bu esa maxsus tashkil etilgan pedagogik mexanizmlar va interaktiv yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni maqsadli va tizimli rivojlantirish o‘quvchilarning shaxsiy faolligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni maqsadli va tizimli rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, interaktiv ta’lim texnologiyalari, kommunikativ treninglar, rol o‘yinlar va hamkorlikka asoslangan faoliyat turlari o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi hamda emotsional barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarda muloqot qilish, o‘z fikrini erkin bayon etish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va nizoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanganligi kuzatildi. Bu esa ijtimoiy-emotsional rivojlanishning o‘quvchilar shaxsiy kamoloti va ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar L.S.Выготский, L.I.Bojovich, A.V.Mudrik kabi olimlarning shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit, hamkorlik va faoliyatning hal qiluvchi

ahamiyatga ega ekanligi haqidagi nazariy qarashlari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ldi. Xususan, o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlardagi faol ishtiroki va emotsional tajribalarni anglashi ularning refleksiv fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish faqat alohida mashg'ulotlar doirasida emas, balki barcha o'quv faoliyatiga integratsiya qilingan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Chunki o'quvchilarda ijtimoiy munosabatlar, bag'rikenglik, mas'uliyat, o'zini anglash va emotsional boshqaruv ko'nikmalari muntazam pedagogik ta'sir orqali shakllanadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida oila, maktab va tengdoshlar muhitining o'zaro hamkorligi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, o'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi munosabati va sinfdagi ijobiy psixologik muhit o'quvchilarning emotsional holati hamda ijtimoiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarning nafaqat akademik faolligi, balki shaxsiy rivojlanishi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish ularning shaxsiy kamoloti, ijtimoiylashuvi va ta'lim samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat intellektual, balki emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratish zarurligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan interaktiv ta'lim texnologiyalari, rolli o'yinlar, kommunikativ treninglar, guruhli ishlar va refleksiv mashqlar o'quvchilarning muloqot madaniyati, hamkorlik qilish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish hamda nizoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi isbotlandi. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida oila, maktab va tengdoshlar muhitining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. O'qituvchining pedagogik

qo'llab-quvvatlovi va sinfdagi ijobiy psixologik muhit yaratilishi o'quvchilarning emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishning kognitiv-motivatsion, faoliyatli, refleksiv-baholovchi va xulq-atvor komponentlariga tayangan pedagogik mexanizmlarini qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, shaxsiy faolligi va kelgusidagi hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida mazkur yo'nalishda raqamli ta'lim muhiti va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ijtimoiy-emotsional rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020 yil 23 sentyabr.
4. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
6. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Xoliqberdiyev K.M. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
8. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
9. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlof, 2008.

10. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
11. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
12. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
13. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2010.